

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.S.Turdiyev	
O'rta asr mutafakkirlarining jamiyat ideosferasi yangilanishi to'g'risidagi falsafiy qarashlar tahlili	182
B.E.Xusanov	
Tarbiya klasterlarining estetik tamoyillari	187
F.M.O'sarov	
Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi va unda jamoat xavfsizligini ta'minlash mezonlari	190
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	193
Sh.Sh.Dadaxanov	
O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatida xalq manfaatlari tamoyilini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	201

SIYOSAT

J.Q.Yusubov	
Davlat xizmatida yetuk kadrlarni shakllanishi – mamlakat taraqqiyotining asosi	206
B.Yalgashev	
“Siyosiy falsafa” va “Siyosat falsafasi” o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari.....	210
A.Xamdami	
Fuqarolik jamiyati bilan bog'liq zamonaviy konsepsiyalarning mohiyati	214

TARIX

B.A.Usmonov	
Amir Temurning Xitoy yurishiga oid ba'zi mulohazalar	219
A.H.Адъгезалов	
Сотрудничество Узбекистана и Азербайджана в рамках гууам	224
F.X.Utayeva, M.A.Muxamedjonova	
To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni	231
A.H.Boltayev	
V.A.Shishkinning shaxsiy arxiviga bir nazar	235
G'.R.Mirzayev	
Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida O'zbekistonning yaqin qo'shnichilik va o'zaro ishonchga asoslangan hamkorligi	239
O.N.Nasirov	
Mustaqillikning dastlabki davrida O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarni shakllanishi	249
O.I.Rajabov	
Shifobaxshlik xususiyatiga ega bo'lgan ziyoratgohlar	253
П.Х.Исмоилова	
Деятельность отделения русско-азиатского банка в туркестане в конце XIX в начале XX века	257
H.S.Yusupov	
Otaniyoz Xo'janiyoz o'g'li Niyoziyning mudarrislik faoliyati	262
Sh.Y.Oxunjonova	
Toshkent shahri bozorlarida savdo va xizmat ko'rsatishda band bo'lgan aholining ijtimoiy tarkibi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1990-2024 yillar).....	265
A.R.Nurmatov, D.X.Boyyeddayev	
Imom al-Buxoriy- buyuk muhaddis olim.....	272
П.Х.Исмоилова	
Банковская деятельность в Ферганской долине: возникновение и ее предпосылки в XIX—XX веках.....	276
G.X.Xasanboyeva	
O'zbekistonda qishloq xo'jaligidagi sug'orish tizimi haqida ayrim fikr-mulohazalar (1950-1970 yillar).....	281

**YANGI O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIDAGI TRANSFORMASIYA
JARAYONLARINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI****ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ИССЛЕДОВАНИЯ
ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE RESEARCH OF
TRANSFORMATION PROCESSES IN BUSINESS ACTIVITY IN THE NEW UZBEKISTAN****Dadaboyev Farhodjon Fozilovich¹**¹Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy omillari, tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlari tadbirkorning professional va individual sifatlarini yuksak bo‘lishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili ekanligi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье представлены социально-философские факторы развития предпринимательства, процессы трансформации в предпринимательстве, а также мнение о том, что высокие профессиональные и индивидуальные качества предпринимателя являются важным фактором социально-экономического развития страны.

Abstract

In this article, the socio-philosophical factors of the development of entrepreneurship, the processes of transformation in entrepreneurship, and the opinion that high professional and individual qualities of an entrepreneur are an important factor of the socio-economic development of the country are presented.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-iqtisodiy, tadbirkor faoliyati, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, uzluksiz ta‘lim, individual sifatlar, iqtisodiy taraqqiyot, transformasiya jarayonlari ta‘lim standartlari, Ta‘lim va tarbiya, ilmiy-metodik.*

Ключевые слова: *социально-экономическая, предпринимательская деятельность, современное мировоззрение, социальная необходимость, непрерывное образование, индивидуальные качества, экономическое развитие, трансформационные процессы, образовательные стандарты, Образование и обучение, научно-методические.*

Key words: *socio-economic, entrepreneurial activity, modern outlook, social necessity, continuous education, individual qualities, economic development, transformation processes, educational standards, Education and training, scientific-methodical.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida ijtimoiy hayotni farovonlashtirish, uning taraqqiyotini ildamlashtirishda tadbirkorlik faoliyatini yuksaltirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati tushunchasiga falsafiy yondashuv, demokratik islohotlar mazmuni va jamiyatdagi tarkibiy o‘zgarishlar mohiyatidan kelib chiqadi. Globallashayotgan va modernizasiyalashayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy asoslash, uning tizimli rivojlantirishga ijobiy ta‘sir etuvchi ijtimoiy- madaniy omillarni falsafiy jihatdan tadqiq etish ham tobora dolzarblashib bormoqda.

Falsafiy tushuncha sifatida «tadbirkor»lik so‘zining mazmuni XVIII asrda ingliz olimi Richard Kantilon tomonidan qayd etilgan.[1] Tadbirkorlik tushunchasi tarixiy manbalarda O‘rta asrlardan boshlab uchraydi. Bu davrda cheksiz foyda olish maqsadida xarakterga kelgan missionerlar, savdogarlar, olib sotarlar, hunarmandlar Yevropa bo‘ylab keng tarqaladi. XVI asrda aksionerlik kapitalining iqtisodning barcha turlariga ta‘sir qilish jarayoni boshlangan. XIX asrda Yevropada oilaviy firmalarni yemirilishi, tarqab ketishi kuzatilgan va kichik va yirik biznes o‘rtasidagi nomunotasiblik chuqurlashib borgan. Avstriyalik faylasuf olimlar L.Mizes va F.Xayeklarning tadqiqotlarida tadbirkorning shaxsiy qobiliyati, faoliyati xususiyatlari, ya‘ni uning o‘zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy hodisalarga munosabati, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, boshqarish qobiliyatiga, tadbirkorlikning jamiyat iqtisodiy tizimini muvozanatlashtirishdagi, - tartibga solishdagi rolini tahlil qilishga katta e‘tibor berganlar.[2:414]

Transformatsiya (lot. transformatio - qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish) (genetikada) - hujayraga yot DNK kirishi natijasida uning irsiy xususiyatlari o'zgarishi; prokariotlarda genetik material almashinish usullaridan biri. Birinchi marta ingliz olimi F. Griffit (1928) pnevmokokklarda kashf etgan. Ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda, ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lgan bozor va savdo komplekslarini zamonaviy ko'rinishga keltirish, sanitariya-gigiyena talablari darajasida saqlash, bozor faoliyati uchun zarur infratuzilmani shakllantirish hamda korxonalarni transformatsiya qilish jarayonlari bilan birgalikda ular faoliyat yuritadigan sohada bozor munosabatlari tamoyillariga to'liq o'tish, raqobat muhitini shakllantirish hamda xususiy sektorni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Joriy yilning birinchi yarmidagi iqtisodiy natijalar tahlili hamda yil yakuniga qadar barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yigilishida, Prezident mamlakatda jami 53 mingta yangi tadbirkorlik subekti tashkil etilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 14 foiz oshganligi haqida ma'lumot e'lon qilindi. Respublikada 2021-yilda yoshlarning biznes loyihalarini kreditlash, ularni kasb-hunarga o'qitish uchun 1 trln so'm va 550 mln dollar ajratilishi belgilandi.(2)

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishda tadbirkorlik subektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini mustaxkamlash yo'lida Prezident Farmon va Qarorlari muxim hisoblanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 25-avgustida "Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'grisida"gi PQ-1604-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish va prokuratura organlari faoliyatini optimallashtirish choratadbirlari to'grisida" 2019-yil 15-martdagi PF-5690-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholini tadbirkorlikka jalbqilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida" 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'grisida"gi 2022-yil 27-iyuldagi PF-178-sonli xujjatlar shular jumlasidandir.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari айниқса tadbirkorlik faoliyatining mohiyatini ochishda tadqiqotchi Q.Muftaydinov tomonidan berilgan ta'rif o'ziga xosligi va keng qamrovligi bilan ajralib turadi. «Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchi sifatida muhim maxovik bo'lib, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste'mol talablarini e'tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi».[3] Ushbu ta'rifda muallif boshqalardan farqli o'laroq tadbirkorlikka iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchi sifatida takror ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashi, uning samaradorligi esa turli mexanizmlardan foydalanish darajasiga bog'liq ekanligiga alohida urg'u bermoqda. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlikning o'z iqtisodiy tabiati mavjud bo'lib, ushbu mavjudlik uning ikki tomonlama xususiyatida namoyon bo'ladi. Bir jihatdan, tadbirkorlik xususiy mulkchilik sifatida bo'lsa, ikkinchi tomondan, tadbirkorlik faoliyatini oqilona yuritish va boshqarishdir.

Iqtisodchi huquqshunos va faylasuf olimlar A.O'lmasov: «Kichik biznes-kishilar mulkchilik subyektlarini moddiy va pul mablag'larini (kapitalni) amalda xo'jalik oborotiga, daromad topishiga mo'ljallangan»[4] -deb ta'rif bersa, tadqiqotchi Yo.Abdullayev tadbirkorlik «Qonun hujjatlariga muvofiq daromad (foyda) olishga qaratilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yo'li bilan tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida amalga oshiriladigan tashabbuskor faoliyat»ligini qayd etgan. Shuningdek, «Bu haqda gapirganda, mashhur davlat va siyosat arbobi Uinston Cherrchillning bir gapi beixtiyor esga tushadi. Qarang, u nima deb yozgan ekan: «Ba'zilar tadbirkor deganda sog'in sigirni, faqat sanoqli odamlargina tadbirkor deganda og'ir aravani tortayotgan mehnatkash otni tushunadi», [5:18]deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari. Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor, nafaqat hukumat doirasida balki keng omma oldida xususan, ilmfan namoyondalari o'rtasida xam alohida axamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, Abdusalomov M.E, Azizov X.T, Anortoev I., Boboqulov S.B, Baratov M.X, Gulyamov S.S, Zokirov I.B, Matkurbanov R.J, Nasriev I.I, Ibratov B, Oqyulov O, Rahmonqulov H.R, Rustamboev M.X., Ro'zinazarov Sh.N., Ro'ziyev R.J., Shodmanov F.Yu, G'aniyev. S.B, Samarxodjayev B.B, Sindarov K.O, Topildiyev V.R, Turebekov T.M, Hamroyev S.S, Egamberdiyev

FALSAFA

E.E, Ergashev V.Yo., Z.O.Quvondiqov., R.T.Berdiyarov 6 va boshqalar 7. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining fuqarolik huquqiy asoslari Hamdo'stlik va xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan o'rganilib borilmoqda. Jumladan,

Mankovskiy I.A, Suxanov E.A, Jilinskiy S.E, Laptev V.V, Puginskiy B.I, Fokov A.P, Gorfikel V.Ya, Polyana G.B, Parashuk S.A, Serebrovskiy V, Karapetov A.G, Prozorov V.F, Oleynik O.M, Zenin I.A, Oygenzixt V.A, Zalesskiy V.V, Rassola M.M, Grishaeva S.P, Gafarli M.S, Golovanov N.M, Ershova I.V, Ivanova T.M, Magaziner Ya.M, Malein N.S, V.V. Vitryanskiy va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan [8]. Yuqorida nomi tilga olingan o'zbek olimlari va boshqa xorijiy davlatlar olimlarining darslik, o'quv qo'llanmalarida xamda ilmiy asarlarida bayon qilingan fikrlar, takliflar va tavsiyalar, mamlakatimizda tadbirkorlik huquqi fanining metodologiyasini xamda manbalarini yanada boyitishga xizmat qilmoqda.

Tadbirkor-real inson, individ, shaxs, shunday ekan, insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar tadbirkor shaxsiga uning ijtimoiy-falsafiy, sosiologik, ijtimoiy psixologik sifatlariga ham xos bo'ladi. Tadbirkor faoliyatining samaradorligi bir qator shaxsiy omillar bilan belgilanadi. Chunki aynan ishlab chiqarishning moddiy texnikaviy bazasi bilan bir qatorda, tadbirkorning bilim darajasi va madaniy-ma'naviy saviyasi, innovatsion bilim texnikaviy maxorat, faoliyatga doir ko'nikma, mativatsiya, ishchi xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, mehnat intizomi, uning intensivligi, texnologik jarayonni munosib tashkil etishi muhim o'rin tutadi.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmaning yangi elementi bo'lmas-da, hozirgi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy birikmalarning tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadbirkorlik faoliyatining ba'zi sohalari yetarli darajada tashkillanmagan va mukammal holatda tartibga solinmagan, shuning uchun tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishda milliy imkoniyatlar bilan bir qatorda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Taraqqiy etgan mamlakatlarda tadbirkorlik shakllarining rivojlanishi shundan dalolat beradiki, ushbu jarayonda tadbirkorlik faoliyatini yuksak darajada namoyon bo'lishi talab etiladi. Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu omil iqtisodiy rivojlanishga erishishning eng muhim sabablaridan tan olingan. [6:28]

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini jadal rivojlanayotgan sektori hisoblanadi, bu yerda nafaqat yangi tovarlar ishlab chiqariladi, balki o'z ijtimoiy hayoti, kelajagi haqida izchil o'ylaydigan insonlar tarbiyalanadi, yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi. Demokratik islohotlar davomida Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi ijtimoiy-huquqiy negiz yaratilganiga qaramasdan, rivojlanishning yangi bosqichida tashkiliy, moliyaviy bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyati shakllanish jarayonida ham muammolar aniqlandi. Shu boisdan ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yilning 1-yanvaridan boshlab, tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turlari bekor qilindi. Nazorat qiluvchi organlar bundan keyin rejadan tashqari tekshirishlar o'tkazishni tashkil qilish huquqiga ega emasligi qayd etildi. Bunday yuksak madaniyat va milliy, umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi boshqarish tizimi tadbirkorlarning samarali faoliyat olib borishlari uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ayni shu muammolarni falsafiy jihatlarini o'rganish yuksak darajada shakllangan tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy qirralarini chuqur tahlil qilish zaruratini vujudga keltirdi. Chunki tadbirkorlik faoliyati bugungi kunda zamonaviy biznesni amalga oshirishda, jamiyatda tadbirkorlikga oid amal qilayotgan huquqiy normalar, ishbilarmonlik qoidalari, kichik biznes vakillarining ma'naviy-axloqiy dunyosiga mos ravishda amaliyotda sub'yektlar faoliyatini tashkil qilish tamoyillari, usullari, metodlarining yig'indisi sifatida namoyon bolmoqda.

Yangi O'zbekistonda rivojida muhim ahamiyat kasb etadigan innovasiya transformasiya jarayonida tadbirkor yangi, madaniy qadriyatlarni yaratishda ishtirok etadi va o'z faoliyatiga ijodiy yondashadi. Bunday yaratuvchilik tufayli tadbirkorga monand bo'lmagan iqtisodiy shart-sharoitlarni takomillashtiradi va shu bilan o'zining ijtimoiy mohiyatini namoyon qiladi. Tadqiqotchi K.Makkonell va S.Bryu tadbirkorni ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi, katalizator vazifasini bajaruvchi, biznes yuritishda dolzarb qarorlar qabul qiluvchi, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishga intiluvchi, tavakkalchilikka moyil shaxs sifatida izohlaydilar.[7]

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni madaniy yaxlitligi tashqi muhitda va ichki ma'naviy jarayonda ishtirok etuvchilarning doimiy harakatida va jamiyatdagi muayyan o'zgarishlarda sodir

bo'lgan tadbirkorlik elementlari, ularning jadal faoliyati asosida shakllanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti "Kichik biznesni rivojlantirish asosida uchta muhim vazifa hal etiladi, birinchidan, kichik biznes ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan muhim sektor bo'lib, aholini ish bilan ta'minlashda uning daromadlarini oshirishining eng asosiy omili va manbai bo'lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, kichik biznes o'zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilish hisobidan ishlab chiqarishni yengilroq va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani, bozor kon'yunkturasi o'zgarishiga moslasha oladi. Uchinchidan, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mulkdorlar o'rta sinfini shakllantirish vazifasini hal etishga erishiladi," deb ta'kidlagan edi. [8:14]

NATIJALAR

Ta'kidlash lozimki, Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishda tadbirkorlik faoliyati yuqori darajada namoyon bo'lishi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

- **birinchidan**, tadbirkorning ichki madaniyati, yani kishilarning ma'naviy dunyosi va ularning o'zaro harakatlarida namoyon bo'lgan etikasi.

- **ikkinchidan**, tadbirkorning tashqi muhit bilan o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati va undagi shaxsiy ma'suliyat tuyg'usi. Bunday sharoitda muayyan vaziyat vujudga keladiki, unda insoniy qadriyatlarining ma'lum bir to'plami (samara, shaxsiy erkinlik, tashkiliy ishlarda yetakchilikka va rahbarlikka intilish va boshqalar) va fe'l-atvorlar keng aholi qatlami tomonidan qabul qilinsa, ular tomonidan qadriyatli-me'yoriy muhit yaratiladi, o'z navbatida, samarali harakatning modellari va namunalari qo'llab-quvvatlaniladi. Ushbu modellarni hamkorlar orasida translyatsiya (namoyish) qilish orqali tadbirkorlikning jamiyatga ijobiy ta'siri oshiriladi.

Tadbirkorlik faoliyati huquqiy va axloqiy me'yorlar (normalar) sifatida o'z ichiga davlat tashkilotlari, iste'molchilar, xizmatchilar, hamkor-sheriklar, rakobatdoshlar, xususiy mulk sohiblari va boshqa xujalik yurituvchi sub'yektlar bilan bo'ladigan bevosita munosabatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, amalda harakatdagi huquqiy aktlarni, standartlarni, qoidalarni, me'yorlarni ham qamrab oladiki, ular to'g'ridan to'g'ri bevosita yoki bilvosita tadbirkorlikni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'kitlash lozimki, tadbirkorlik faoliyati tizimli tarzda dividend olishga qaratilgan jarayon bo'lib, faqat amaldagi milliy qonunlar, xalqaro qoidalar, konvensiyalar, shartnomalar asosida ish yuritadi.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik mustaqil subyekt hisoblanadi. Chunki u o'zining ijodkorlik, yaratuvchanlik faoliyati natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yangidan qayta quradi, zarur holda butunlay o'zgartirib yuboradi va xatto ijtimoiy hayotga, madaniyat iqtisodiyot tarmoqlariga yangi na'munalarni ham olib kiradi. Shu bois "Biroq, vaqt o'tishi va insoniyat jamiyatining rivojlanishi bilan ijtimoiy munosabatlar rivojlanadi va shuning uchun o'zgaradi, vujudga keladi, shu jumladan iqtisodiy munosabatlarda.. Shunga ko'ra, davlatning yondashuvlari ham o'zgarimoqda. Hokimiyat organlari iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solish usullariga, uni amalga oshirishga ruxsat berilgan shaxslar tarkibiga, jamiyat va fanning dunyoda sodir bo'layotgan voqealar haqidagi g'oyalari, jamiyat, ijtimoiy, shu jumladan iqtisodiy, jarayonlar, iqtisodiy faoliyatning asosiy ishtirokchisi nima bo'lishi kerakligi to'g'risida - yuridik shaxs.

U yoki bu huquqiy hodisa, xususan, zamonaviy g'oyalar o'zgardi, yangicha ilmiy tushunishni talab qiladi.va rivojlanayotgan davlat iqtisodiyotidagi joylar munosabatlar, bu esa, o'z navbatida, rivojlanishiga hissa qo'shadi" [9]

Маълумки, tadbirkorlik muammosiga qadimgi dunyo faylasuf olimlaridan boshlab to hozirgi davr tadqiqotchilariga qadar turlicha yondashuv va talqinlar bayon qilingan, ushbu faoliyat mohiyatiga bag'ishlangan asarlar yaratilgan. Xususan, Qadimgi grek faylasufi Aristotelъ "Qonunlar" - asarida tadbirkorlik mohiyatini tadqiq qilib, jamiyatning barqaror va farovon yashashida ishbilarmonlikning o'rnini yuksak pog'onaga ko'taradi".[10]

Aristotel o'zining "Siyosat", "Etika", "Ritorika" kabi asarlarida jamiyat taraqqiyoti va inson farovonligini ta'minlashda savdo-sotiq munosabatlarini muntazam takomillashtirish zarurati haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Bunda tadbirkor shaxs adolatli ishlarga qo'l urar ekan, adolatli, jasorat namunasini ko'rsatar ekan, sadoqat sohibiga xos bo'lgan fazilatlarga ega ekanligini isbotlaydi. Aristotel qarashlarida "tadbirkorlik faoliyati" bu, eng avvalo, dehqonchilik, hunarmandchilik va mayda savdo ishi bilan band bo'lganlarning asosiy, sharafli faoliyati deb e'tirof

FALSAFA

etilgan. Ularning maqsadi-tadbirkorlik bilan insonlarning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga erishish mumkinligi va ularga davlat g'amxo'rlik qilishi zarurligi ta'kidlangan. [11:8]

Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida qadimgi Hindiston faylasuflarining "Artxashastra" asarida (miloddan avvalgi IV-III asrlar) o'sha davr iqtisodiyotning asosi hisoblangan dehqonchilik, chorvachilik, savdo va hunarmandchilik faoliyatining natijasida davlatning kuchi shakllanadi deb e'tirof etilgan.[12:2] Xitoylik mashhur mutafakkir Konfusiyning (m.a. 551-479 yy.) falsafiy qarashlarida ta'kidlanishicha, xususiy tadbirkorlik mehnati davlat va uning fuqarolari boyligini bir xilda ko'paytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'limotda u xususiy mulkning jamiyatda xo'jalik yuritishidagi ustuvorligini ta'kidlaydi va aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat farqini ta'kidlab, aqliy mehnat bilan ham "yuqori" daromad olish mumkinligini tasdiqlaydi. Bunda tadbirkorning noyob qobiliyati, intellektual salohiyati hisobga olinishi lozimligiga e'tibor qaratadi.

Buyuk faylasuf olim Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida jamiyatda tadbirkorlik ham insonlarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Amir Temur "Tuzuklar"ida tadbirkorlik masalasiga adolat nuqtai nazaridan yondashadi. Shu ma'noda "...Hammaga ham bir xil jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmadim", - deb yozadi. Shuningdek, boshqa mutafakkirlar, allomalar asarlarida ham tadbirkorlik, savdo-sotiq munosabatlari doirasida adolat, insonparvarlik, o'zaro yordam masalasi atroflicha tahlil qilingan. Buyuk sohibqiron Amir Temur tadbirkorlikning jamiyatdagi o'rniga katta e'tibor berib, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy hayot, boshqaruv va harbiy sohalaridagi barcha g'alabalarni, eng avvalo, o'zining tadbirkorlik bilan ish yuritganligidan, tadbirkorlikni o'z tafakkuri va harakatining shiori qilib olganligidan deb bilgan.

Buyuk faylasuf alloma Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida tadbirkorlikni kasb-hunar bilan bog'liq hodisa ekanligini izohlab, "Kasb-hunarni amaliy tajribada jahd va g'ayrat bilan o'z vujudlariga singdirganlaridan so'ng ularni asta-sekin egallay boradilar" degan fikrni ilgari suradi. Allomaning fikricha, muayyan kasb-hunarni o'rganishda, avvalo, hunarga qanoat, g'ayrat va shijoat bilan yondashilsa, undagi bu intilish ravon harakatga kelib, shu hunarga nisbatan ko'nikish hosil qiladi. Abu Rayhon Beruniy esa inson ehtiyojini faqat pul, mol-dunyo bilan emas, balki tadbirkorlik, mehnat, izlanish, yaratish, qurish, bunyod qilish, ilm olish, bilish orqali qondirish lozimligini alohida e'tirof etadi.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini yaratishda va uning yusalishida mashhur faylasuf olim Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd Muhammadning hissasi katta bo'lgan. Ayniqsa uning mashhur "Kitob ul-ibar" ("Ibratli misollar kitobi") asarida jamiyat taraqqiyoti moddiy tamoyillarga asoslanishi, jamiyat a'zolarining hamkorlikdagi ishlab chiqarish faoliyati, "jamiyatning moddiy tovarlar ishlab chiqaruvchilar jamoasidan iborat" ekani, hunarmandchilik, fan, adabiyot va san'atning rivojlanishi mehnat unumdorligining o'sishi bilan bog'liqligi haqidagi qarashlar ilgari surilgan. Faylasuf hunarmandlar o'z kasbiy malakasini doimo oshirib borishi, tadbirkorlik ilmidan xabardor bo'lishini e'tirof etib, ular uchun axloqiy qoidalarni yaratgan. Ushbu tavsiyalarda hunarmandlarning kiyimini toza tutishi, pok vijdonli bo'lishi, piru ustozdan yordam so'rashi, olimlar bilan do'st bo'lishi, hisob-kitob ishlarini to'g'ri tashkil etishi, shogirdlarini o'qitishi, xushmuomala bo'lishi, ehson-sadaqa berishi, ish joyini toza tutib, huzuriga keluvchilarni izzat-ikrom bilan kutib olishi va hurmat bilan kuzatishi haqida fikrlar bayon etilgan.

O'z davrida taniqli faylasuf olim Nizom ul-Mulk ham tadbirkor faoliyatiga to'siq bo'luvchi turli illatlarni keskin tanqid ostiga oladi. Nizom ul-Mulk o'z qarashlarida hukmdorlar, amirlar, amaldorlar va qozilarning mansabini suiste'mol qilib, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi, soliq islohoti, davlat mablag'larini saqlash va sarflash, hisob-kitob ishlari haqida aniq fikrlarni bayon qilgan.[13:25]

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlarini faoliyatida islom dinining falsafiy negizlarida an'ana, urf-odatni inson takomilidagi o'rni va rolga muhim ahamiyat berilganligiga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki unda tadbirkorlik an'analari bilan uyg'unlashib ketgan fikrlarni sezish mumkin. Aynan islom dinida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatalarda hamisha adolat, insof, halollik, bag'rikenglik, insonparvarlik bo'lishi talab etilganligi va musulmonlarni shunga chorlanganini ta'kidlash lozimki, mol-dunyo hayot davom etishida bir vosita, unga halol yo'llar bilan erishish Islom dinining asosiy ta'limotlaridandir. Bu haqda Qur'oni Karimda shunday deyiladi: "Ayting: "Bandalari uchun chiqargan Allohning ziynatini va pok rizqlarni kim haromga chiqardi?" Ayting: "U (ziynat va pok rizqlar) bu dunyoda imon keltirganlar (va

boshqalar) uchun, qiyomat kunida esa, xolis (mo'minlarning o'zlari uchun bo'lur)". Shunday qilib, oyatlarni biladigan qavmlarga mufassal bayon qilurmiz". O'z navbatida islom dini tadbirkorlik va tijoratda quyidagi ma'naviy-axloqiy omillarni ustuvorligini qayd etadi: erkin tadbirkorlik, adolat, qonuniylik, o'zaro xushmuomalalilik, xayriya ishlari qilish shular jumlasidandir.

Islom dini tadbirkor va tijoratchilardan munosabatlarda xalollikni, savdo shartnomalariga, o'zaro imzolangan bitimlarga rioya etishni ham muhim talab sifatida qo'yadi. Shuning uchun ham unda bironi, hamkorni aldash, savdo bitimi, shartnomalarini soxtalashtirish, unda ko'rsatilgan bandalarni buzish, o'zganing haqqiga xiyonat qilish qattiq qoralanadi.

Islom ta'limoti tijorat-savdogarlikni eng halol kasblardan sanaydi, uning ruxsat etilganligi Qur'on, sunnat va ijmo'iy ummat bilan sobit bo'lgan. Muhammad (sav) ham tijorat bilan shug'ullanganlar. Shuning uchun ham islom ta'limotida halol tijorat, savdo insoniy munosabatlarning eng samarali va yaxshisi, oxirat ne'matlariga erishish vositasi sifatida qaraladi. Islom shariati hamisha o'lchov va tarozida insof bilan ish tutishga, o'zgarlar haqqiga xiyonat qilmaslikka buyuradi: "(Ey, insonlar! Muomalada) vaznda adolat o'rnatingiz va tarozida ziyonkorlik qilmangiz!", Boshqa oyatda esa, ya'ni: (Savdo-sotiqda o'lchov va tarozidan) urib qoluvchi kimsalar holiga voy! Oyati karimada bayon etganidek, xuddi shu kabi o'lchov va tarozidan urib qolish, boshqalarning haqini aldov yo'li bilan yeyish ham qattiq qoralanadi. Bunday holat ayniqsa, tijorat, oldi-sotdi ishlarida uchraydi. Bozorda va do'konlarda savdo qilayotgan tadbirkorlar xaridor haqidan urib qolish, o'lchovni kam tortib berish halokatli ish ekanini, unday kimsalarga ma'naviy jazo mu'yarrar bo'lishini unutmasliklari kerak.

O'rta sinf jamiyat tarkibida ko'pchilikni tashkil etadi, ular boylar va qashshoqlar tabaqasidan ham ko'p sonli bo'lganligi tufayli o'zaro munosabatlarda ijtimoiy hamkorlik, tinchlik o'rnatiladi, nizo va ixtiloflar keskin tus olmaydi. Buyuk alloma Aristotel ikki yarim ming yil oldin, hali jamiyat quldorlik tuzumidan to'la halos bo'lmagan bir sharoitda ushbu bunyodkor g'oyani ilgari surgan, ya'ni politiya - o'rta sinf to'g'risidagi ta'limoti keyingi ming yilliklarda, xususan, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zero, bu ta'limot nafaqat jamiyat, davlat, siyosat, huquq, qonun, aristokratiya, demokratiya, o'rta sinf, erkinlik, adolat kabi umuminsoniy tushunchalarning ilk ildizlari ham Aristotel tomonidan yaratilgan. Ushbu ta'limotda tadbirkorlik tushunchasining dastlabki nazariy asoslari jamlangan.

Ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyoda qadimda dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi o'z navbatida savdo-sotiqning taraqqiyotiga va shaharlarning kengayib, obodonlashib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Somoniylar davriga xos bo'lgan savdo-sotiqdagi an'anaviy yuksak saviya saqlanib qolgan va unga o'ziga xos yangiliklar kiritilgan. Hozirgi kunda tadbirkorlikda muhim rol o'ynaydigan chek tizimi dastlab o'sha zamonlardayoq joriy qilingan edi. Chek tushunchasi aslida Yevropaliklarga O'rta Osiyo orqali kirib borgan bo'lib, savdogarlar yirik savdo tadbirlarini amalga oshirayotganlarida har doim yonlarida katta moliyaviy mablag'ni olib yurmasdan har bir shaharda mavjud ishonchli sarroflarga (pul maydalab beruvchilar, pul almashtiruvchilar) naqd pul topshirib, shu haqda hujjat, ya'ni chek olganlar. Mo'ljalidagi shaharlarga borib, hudda shunday sarroflarga yoki yirik savdogarlarlarga chekni ko'rsatib o'z savdo-sotiq rejalarini amalga oshirganlar. Shuning bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishi yana bir muhim faoliyat-quruvchilik, me'morchilikda ham jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Shaharlar kengaygan, muhtasham binolar, orasta bozorlar, masjid-madrasalar, ustaxonalar, do'konlar, maishiy, madaniy ahamiyatga molik imoratlar bunyod etilgan. Bunda quruvchilik madaniyatiga aloqador turli kasbdagi ustalar ishtirok etib, o'z kasbiy mahoratlarini oshirganlar. Buni biz Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon kabi qadimiy shaharlar hududida saqlanib qolgan yodgorliklar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Xususiy tadbirkor rostgo'y, halol, aniqlik, tashabbuskorlik, ma'naviy dunyosi yuksak va boshqa ijobiy xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Ta'kidlash joizki, kichik biznesning rivojlanish tarixi sahifalarida tadbirkor tashabbuskor, yangilikka intiluvchi, ilg'or fikrlovchi, aql sohibi, mislsiz raqobat kurashida samarali natijaga erishuvchi inson sifatida tasavvur qilinadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, har bir tadbirkor har qanday ijtimoiy jarayonda o'z faoliyatini samarali bo'lishidan manfaatdordir. Bunday faoliyatdan fuqarolik jamiyati institutlari ham foyda ko'radi. Motivasiya haqida fikr bildirgan faylasuf M.Veber G'arb kapitalizmi barcha o'ziga xosliklari mehnatni tashkil etishning protestant etikasi konsepsiyasi orqali amalga oshirganligini qayd etadi.

Faylasuf M.Veberdan farqli ravishda tadqiqotchi F.Brodel fikrlari boshqa manba uchun asos bo'lganligini qayd etadi. Unga ko'ra milliy madaniyatlar o'zining xususiy motivasiya mexanizmlariga

FALSAFA

ega, ular nafaqat diniy, balki turli ijobiy ilg'orlikka yetaklovchi g'oyalarga, jamiyatdagi mavjud, muayyan korporasiyalar, tashkilotlar manfaatiga xizmat qiladi. Motivatsiyalarni yana bir boshqacha talqinini biz faylasuf B.Radayev qarashlarida ham kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotchi o'z qarashlariga odamlarning muayyan faoliyatini belgilovchi elementini qo'shadi. Bu element hayotiy faoliyat tushunchasi bo'lib uni ta'riflaganda so'z faoliyat mazmuni haqida boradi, ularsiz mavjud biologik va ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi, ushbu tahdid, ijtimoiy guruhlar yoki hamjamiyatga nisbatan ham sodir bo'lishi mumkin, shu tarzda iqtisodiy sharoitlar motivatsiyalarini shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bizning nazarimizda, bunday motivatsion faoliyat faqatgina hayotiy faoliyat yoki ijobiy omillar bilan belgilanmaydi, ya'ni insonning ijodkorlik, tashabbuskorlik faoliyati insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini yanada yuksak darajaga chiqishida ustuvor o'rinni egallaydi.

Neoklassik falsafa maktabining yirik vakili A.Marshall tomonidan iqtisodiy o'sish uchun tadbirkorlikning hal qiluvchi ijodiy ahamiyati tan olinib, A.Smitning ishlab chiqarish omilining uchta mumtoz toifasiga: yer, haq, kapitaldan tashqari mehnatni to'rtinchi, deb qaraydi: "Mehnat bu-ishonchli tadbirkorlik qobiliyatini va xususiy kapitalini talab qiluvchi yaxlit birlashgan tashkilotdir".

Tadbirkorlik faoliyatidagi transformasiya jarayonlari shakllantirishida davlat tashkilotlarining o'rni va rolini maxsus siyosiy institut sifatida ajratib tadqiq qilish lozim. Chunki davlat tashkilotlari iqtisodiy subyektlarni tashkil topishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy fanlarda ushbu mavzuga doir klassik qarashlarni o'zgartirgan faylosuf olim K.Polan bo'lib, u o'z falsafiy qarashlarida o'z-o'zini tartibga soluvchi bozor to'g'risidagi konsepsiyaning cheklanganligini ta'kidlaydi, bunday bozor munosabatlari ko'p hollarda o'rta asrlar sharoitida mavjud bo'lgan. Bizningcha, bozor iqtisodiyoti fuqarolik jamiyati institutlarini shakllanishi, rivojlanishi bilan hamohang bo'lib, ijtimoiy institut shakli sifatida tadbirkorlik esa davlat siyosati bilan hamohang rivojlanishi mumkin.

MUHOKAMA

Shuning uchun ham demokratik islohotlar natijasida milliy o'zligimizni qayta kashf etdik. Bu oson va tez kechadigan jarayon emas. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi katta ma'naviy va moddiy safarbarlikni taqozo etmoqda. Bu borada juda zarur ishlar amalga oshirildi. Xususan, respublikamizda milliy uyg'onish dasturining yangi bosqichi amalga oshirilmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, "... xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rishni istaydi. Bizning mehnatkash, oqko'ngil, bag'rikeng xalqimiz bunga to'la haqlidir," deb ta'kidlaydi.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarida quyidagi tamoyillar asosida o'z faoliyatini amalga oshiradi:

- tadbirkorlik subyektlarining tengligi;
- iqtisodiy faoliyat erkinligi;
- iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish;
- o'zaro erkin raqobat;
- qonuniylik;
- davlatning ta'sir etishi, intellektual mulk dahlsizligi;
- raqobatbardosh faoliyatni erkin boshqarish;

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, uch buyuk kuchdan-intellektual imkoniyat, ijtimoiy fikr, huququy kafolat, tadbirkorlik ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi omilidir transformatsiya qolishda kata xizmat qilmoqda. Zero, chinakam boylikni intellektual imkoniyat yaratadi, ijtimoiy fikr ham aynan milliy o'zlikni tiklaydi, shuningdek, yuqoridagilarni himoyachisi sifatida davlat barcha huquqiy mezonlarda tadbirkorlarni kafolatlab, himoyalashga va rivojlanishni qo'llab quvvatlab bormoqda.

"Shu boisdan ham, o'z xaq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondosha oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi istiqloq yillarida biz uchun hal qiluvchi masalaga aylandi," deb e'tirof etgan edi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti, "... davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investisiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o'ta muhim ahamiyatga ega" bo'lishi kerakligi ravshan bo'ladi, deb ta'kidlangan edi.

XULOSA

Xulosa qilganda, Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatidagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari. Tadbirkorlik, biznes va ishbilarmonlik, muhitida horijiy ijtimoiy jarayonlardagi faoliyatlarni ya'ni ishbilarmonlik muhitini qayta o'zgarish, qayta hosil qilish haqidagi g'oyalar kishilarning ongu-shuuri, hayot tarzi va ezgu intilishlaridan munosib o'rin oldi. Buyuk ajdodlarimizning yaratuvchi, bunyodkor tadbirkor inson to'g'risidagi g'oyalari bugun xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotida to'la-to'kis ro'yobga chiqmoqda. Bu respublikamizning shahar va xududlarida amalga oshirilayotgan demokratik mazmundagi islohotlarda namoyon bo'lmoqda. Zero, mamlakatimizda kichik va xususiy biznesni rivojlantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Ayni, shu nuqtai nazardan tadbirkorning professional va individual sifatlarini yuksak bo'lishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мизес Л. Экономический и социологический анализ. - Москва: Catallaxy, 1994. - 414 с.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatalariga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi 2017 yil 23 dekabr.
3. Хайек Ф.А. Индивидуализм и экономический порядок. - Челябинск: СОЦИУМ, 2011. - 394 с.
3. Ўлмасов А., Шарифхўжаев М. Иқтисодиёт назарияси. - Тошкент: Меҳнат, 1999. - 243 б.
4. Абдуллаев Ё. ва бошқалар. Тadbirkor ён дафтари: кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik. - Тошкент:
5. Ўзбекистон бухгалтер ва аудиторлар ассоциацияси, 1999. - 126 б.
6. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлис Снати ва Қонунчилик палаталарига Мурожаатномаси. // Халқ сўзи 2017 йил 23 декабрь.
7. Тошкент давлат юридик университети мустақил изланувчиси Бердияров Раҳматжон Тожиноровичнинг "Тadbirkorlik субъектларини солиқ органларининг қонунга ҳилоф ҳаракатларидан фуқаролик-ҳуқуқий ҳимоя қилиш" мавзусидаги юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган автореферати. Т.:2021.49-б.
8. Раҳмонқулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. Корпоратив ҳуқуқ. ТДЮИ, – 2007. –116 б; С.74-75; Окюлов О. Правовой статус индивидуального предпринимателя. //Вестник Высшего хозяйственного суда Республики Узбекистан. 2005. - № 7. –С.56-61; Синдоров К.О. Қишлоқ хўжалигида шартнома муносабатларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш муаммолари: юрид. фан. докт. дис... – Тошкент, ТДЮИ. 2004.-284 б; Шодманов Ф.Ю. Бозор иқтисодиёти шароитида шартнома мажбуриятларини бузганлик учун фуқаролик ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари: юрид. фан. докт. дис. ...Автореф. – Тошкент, ТДЮИ, 2002. – 44 б;
9. Манковский И.А. Правовой статус частных коммерческих юридических лиц как субъектов предпринимательской деятельности: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. Минск, 2002. - 17 с
10. Шодманов Ш., Фофуров У. Иқтисодиёт назарияси. - Тошкент: 2007. - 137 б.
11. Маршалл А. Принципы политической экономии. Том-2. - Москва: Прогресс, 1993. - 310 с.
12. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз - Тошкент: Ўзбекистон, 2016.- 17 б.
13. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008. - 77 б.